

34-§. SIRPANISH ISHQALANISH KOEFFITSIYENTINI ANIQLASH

(3-laboratoriya ishi)

Ishning maqsadi: yog‘och chizg‘ich ustida sirpanayotgan taxtachaning ishqalanish ko‘effitsiyentini aniqlash yordamida sirpanish ishqalanishga oid bilimlarini mustahkamlash.

Kerakli jihozlar: uzun yog‘och chizg‘ich, ilgakli taxtacha, dinamometr, tarozi, tarozi toshlari.

Ishni bajarish tartibi

1. Tarozida taxtachaning massasini o‘lchang va 4-jadvalga yozing.
2. $P = mg$ formuladan foydalanib, taxtachaning og‘irligini toping.
3. Taxtachaga dinamometrni ilib, uni chizg‘ich bo‘ylab tekis sirpan-tiring va dinamometrning ko‘rsatishini $F_{i(s)}$ sirpanish ishqalanish kuchiga teng deb olib, uni jadvalga yozing.
4. 121-betdagi (4) formuladan foydalanib, sirpanish ishqalanish ko‘effitsiyentini hisoblang.
5. Taxtacha ustiga avval 100 g li, so‘ngra 200 g li tarozi toshlarini qo‘yib, tajribani takrorlang. Ular uchun ham sirpanish ishqalanish kuchini toping. Natijalarni jadvalga yozing.
6. $\mu_{o'rt} = (\mu_1 + \mu_2 + \mu_3)/3$ formuladan foydalanib, sirpanish ishqalanish ko‘effitsiyentining o‘rtacha qiymatini hisoblang va natijani jadvalga yozing.

4-jadval

No	m, kg	P, N	$F_{i(s)}, \text{N}$	μ	$\mu_{o'rt}$
1.					
2.					
3.					

7. Absolyut va nisbiy xatoliklarni toping.
8. Laboratoriya ishi natijasini tahlil qiling va xulosa chiqaring.